

TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FANNING RAVNAQI

*Sa'dullayeva Sarvinoz Anvar qizi*

*Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti*

*Tarix ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: Nurullayeva Shoira Qo'shnazarovna*

*UrDU "Tarix" kafedrasи dotsenti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIV-XV-asrlarda Temur va Temuriylar davridagi tarixiy badiiy izlanishlar haqida so'z yuritilgan.

**Аннотация:** В данной статье говорится об историко-художественных исследованиях периода Тимура и Тимуридов в XIV-XV веках.

**Abstract:** This article talks about historical artistic research during the period of Timur and the Timurids in the XIV-XV centuries.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur , Temuriylar, Zafarnoma, Humoyun, Abdurazzoq Samarcandiy, Ibrohim Sulton, Astronomiya, Geometriya, Geografiya, Ulug‘bek rasadxonasi.

**Ключевые слова:** Амир Темур, Тимуриды, Зафарнама, Хумаюн, Абдураззок Самарканди, Ибрагим Султан, Астрономия, Геометрия, География, обсерватория Улугбека.

**Key words:** Amir Temur, Timurids, Zafarnama, Humayun, Abdurazzoq Samarkandi, Ibrahim Sultan, Astronomy, Geometry, Geography, Ulugbek observatory.

Amir Temur ilm-fan rivoji uchun g‘amxo'rlik qilishi tufayli Samarcand dunyoning madaniy ma'rifiy markaziga aylandi. Mashhur olimlar Samarcandga keldilar. Masalan Qozizoda Rumiy, tabib Husomiddin Kermoniy, falakiyotshunos Mavlono Ahmad. Ulug‘bek davrida turli mamlakatlardan kelgan 100 dan ortiq olimlar yetishib chiqdi hamda jahon ilm-faniga munosib hissa qo'shdilar. Falakiyotshunoslik fanida Mirzo Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshoni va Ali Qushchilar yangi kashfiyotlar qildi [1, -B-38]. Tarix ilmida Sharafiddin Ali Yazdiy, Hofiz Obro‘, Abdurazzoq Samarcandiy, Mirxond, Xondamir, Zayniddin Vosifiy va boshqa tarixchilar qimmatli asarlar yaratdi. Badiiy ijod va tilshunoslikda Abdurahmon jomiy, Navoiy, Davlatshoh Samarcandiy, Koshifiy singari olimlar yuksak sa'nat asarlari bilan mashhur bo'ldi. Mirzo Ulug‘bek davrida Samarcandda birinchi akademiyaga asos solindi. Yer kurrasini o'lhash va falakiyotshunoslik jadvallarini tuzish ishlari amalga oshirildi. Samarcand rasadxonasining qurilishi ulkan madaniy voqeа bo'lib ilmiy yutuqlari jihatidan unga teng keladigan rasadxona yo'q edi. Rasadxonada Ulug‘bek Matematika, Geografiya, Geometriya, Falakiyotshunoslikda chuqur bilimlar sohibi edi. Ali Qushchi va Muhammad Havofiylar Mirzo

Ulug‘bekning sevimli shogirtlari bo‘lgan. Mirzo Ulug‘bek Zij asarida VIII-XI-asrlarda boshlangan Falakiyot ilmiga oid an’anani davom ettirib yuqori darajaga ko‘taradilar. Matematikaga doir bir daraja sinusni aniqlash haqida risola Falakiyotshunoslikka oid Risolai Ulug‘bek va Musiqa haqida Musiqa ilmi haqida risola kabi asarlar yozdi. Mirzo Ulug‘bek Samarqand, Buxoro va G‘ijduvonda madrasalar qurdirib ta’lim ishlariga rahbarlik qildi. Temur va Temuriylar davrida og‘zaki badiiy adabiyot yaratildi. Adabiyotshunoslik va tilshunoslikka oid ilmiy asarlar yaratildi. O‘zbek tarjima adabiyotlari vujudga keldi. Bu davrda yetuk ijodkorlar Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy, Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy, Muhammad Solih, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi shoirlar o‘zbek yozma adabiyotining dunyoviy ko‘lamini yuksak cho‘qqiga ko‘tardilar. Amir Temur va uning avlodlari adabiyot va sa’natga yaqin kishilar edi. Temuriylardan 22 ta shoir ijodkor bo‘lib ular o‘zlari she’r yozish bilan birga ijodkorlarga homiylik qilganlar [2.B.-10.]. Xalil Sulton Husayn Boyqaro o‘z she’rlaridan devon tuzganlar. XV-asrda o‘zbek adabiyoti ayniqsa Navoiy ijodi misolida adabiy janrlarning rang-barangligi nuqtayi nazaridan ham eng yuksak cho‘qqiga ko‘tarildi. Temuriylarning adabiyot va madaniyat sohasidagi an’analari keyinchalik Boburiylar tomonidan Afg‘oniston va Hindistonda XVIII- XIX- asrlarda Xorazm va Qo‘qon xonligida rivojlantirildi. Temuriylar davri adabiyoti o‘zbek adabiyoti rivojida o‘ziga xos alohida bosqichni tashkil etadi. Undagi ulug‘vor insonparvarlik va xalqchilllik va adolatparvarlik hamon o‘z tarovatini yo‘qotmagan [3.B.-18; 4. B.-15; 5; B.-20.]. Bu adabiy me’ros O‘zbekistonda ham asrlar davomida o‘zining boy mazmuni bilan g‘oyaviy mafkuraviy teranligi bilan komil insonni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Temuriylar davrida yaratilgan adabiyot tasavvuf adabiyoti darajasini belgilaydi. Temuriylar davri adabiyoti tasavvufning g‘oyaviy mazmunida ilohiy masalalarni qamrab oladi. Temuriylar davrida yozilgan asarlar umuminsoniy tafakkurni ifodalaydi. Movaraunnahr va Xurosonda XIV- asrning 2-yarmi XV- asrda ro‘y bergen madaniy yuksalish butun musulmon sharqidagina emas, balki Yevropa xalqlarini ham hayratga soldi. Bu yuksaklik Markaziy Osiyoning so‘ngi madaniy ma’naviy rivojini belgilab bermay qo‘shni mamlakatlar madaniy taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatdi [6. B.-28; 7. B.-35].

Qisqa xulosa qilib aytganda, Temuriylar davrida ilm-fan taraqqiyoti yuksaldi, bunda Amir Temuring xizmatlari beqiyosdir. Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek ilm-fan tarqqiyotiga katta hissa qo‘shdi. Buxoro, Samarqand va G‘ijduvonda madrasalar quzdirdi. Mirzo Ulug‘bek davrida falakiyotshunoslik, matematika, geometriya fanlari rivojlandi. Mirzo Ulug‘bek 1424-1429-yillarda Ulug‘bek rasadxonasi qurilgan bo‘lib, bu rasadxona Samarqandda joylashgan. Rasadxonada bir qancha olimlar o‘z faoliyatlarini olib borganlar. Mirzo Ulug‘bekning Zij asarida 1018 ta yulduzning joylashuvi aks ettirilgan. Bu davrda ilmfan yuqori natijalarga erishdi.. Temuriylar davrida olib borilgan bunyodkorlik ishlari va ilm-fan ravnaqi sabab bu davr tarixga

“Temuriylar Renesansi” davri bo‘lib kirgan. Uchinchi Renesans davrida yashayotgan biz yoshlar ushbu davrdan qolgan ulkan me’rosni o‘rganib avaylab-asrab kelgusi avlodlarga to‘laligicha yetkazmog‘imiz hamda ajdodlarimizga loyiq avlod bo‘lib yetishmog‘imiz zarur.

**Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Hayitov T. Amir Temur qalbida chaqnagan nur. –Toshkent: Davr press, 2019-yil.-352 b.
2. Raximov J. Adolat va qudrat timsoli. –Toshkent: O‘qituvchi, 2017- yil.-380 b.
3. Hayitov T. Buyuk salohiyat sohibi. -Toshkent, O'qtuvchi, 2018-yil.-96 b.
4. Amir Temur va Ulug’bek davri tarixi. Bosh muharrir A.Asqarov. –Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1996-yil.-263 b.
5. Ibn Arabshoh Amir Temur tarixi. –Toshkent: Mehnat, 1992- yil.
6. Amir Temurning harbiy mahorati. –Toshkent: Yozuvchi, 1993-yil. -B-35.
7. Keren Lusen Amir Temur sultanati. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2018-yil.